

Nazarov Ibrohim Hasan o'g'li

**“TIQXMMI” MTU BuxTRBI “Yer kadastri va yerdan foydalanish” ta'lif yo'nalishi
talabasi**

AGROKLASTERLARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI HAMDA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada klaster tiziming avfzalliklari va bugungi kundagi jamiyat rivojidagi klasterlarning o'rni, iqtisodni rivojlantirishda o'rni qanchalik muhim ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, klaster, iqtisodiyot, islohot, bozor munosabati, barqaror rivojlanish, yengil sanoat, paxta sanoati.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida shiddatli, sifat jihatidan yangi tarkibiy va chiqur bozor islohotlari yuz bermoqda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ustuvorliklari tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda, iqtisodiyotni haqiqatda harakatga keltiruvchi quvvatga ega bo'lgan iqtisodiy o'sishning yangi, amaliy drayverlari joriy etilmoqda. Eski, o'z salohiyatini yo'qotgan institut va iqtisodiy reguliyativ vositalar iqtisodiyotga ta'sir etishning yangi innovatsion va samarali shakl hamda usullariga o'z o'rnni bo'shatib bermoqda [1].

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqaro amaliyotda sinalgan va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahmiyat kasb etuvchi bozor munosabatlarini va tajribalarini hayotga tatbiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shulardan biri klasterlar tizimi bo'lib, hozirda iqtisodiyotimizning paxtachilik, to'qimachilik va yengil sanoat sohasida ushbu tizim faoliyatini yo'lga qo'yish masalalari ustivor vazifa etib belgilangan.

Klaster tizimida, ma'lum bir sohada faoliyat yuritadigan korxonalarning xarajatlarini buxgalteriyada hisobga olish hamda ularni qonun hujjalari asosida to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish buxgalteriya hisobi oldida turgan muhim vazifalardandir. Ko'pgina manbalarda rivojlangan davlatlarning tajribalari barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda, investitsion faollikni oshirishda, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishda xalqaro logistik markazlari, erkin iqtisodiy zonalar kabi klasterlarning o'rni va ahmiyati juda yuqori ekanligi ko'rsatilgan [2].

S. Rosenfeldning so'zlariga ko'ra, klasterlarni yaratish zamонавиy iqtisodiy rivojlanish va kam rivojlangan hududlar strategiyasining asosidir [3].

Klaster atamasi amerikalik iqtisodchi, Garvard maktabi professori, raqobat imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha mutaxassis bo'lgan Maykl Yujin Porter [4] tomonidan ilk bor qo'llangan edi. U klasterga geografik jihatdan qo'shni bo'lgan, bir-biri bilan bog'langan, muayyan bir sohada faoliyat olib boradigan hamda bir-birining ishini to'ldiradigan korxona va tashkilotlar birlashmasi sifatida ta'rif bergen.

Klasterlar bo'yicha ilk tadqiqotlardan birini Alfred Marshall o'tkazgan bo'lib, u Buyuk Britaniyadagi sanoat hududlarini o'rgangan. Klasterlarni tashkil etish va ular faoliyat ko'rsatishining nazariy rivojlantirishga va amaliy jihatlarini o'rganishga ko'plab xorijlik olimlar katta hissa qo'shgan, jumladan G.A. Yashevoy, A.G.Granberg [5], M.Galushkina [6], N.V.Gorodnova, D.L.Skipin [7], N.Ye.Yegorov [8], N.A.Mishura [9] va boshqalar.

Xorijiy olimlar va tadqiqotchilarning talqiniga ko’ra “klaster” tushunchasiga quyidagi bir qator ta’riflар berilgan:

G.A.Yashevoy ta’rificha: Klaster – bir ilmiy-ma’rifiy markazi atrofida birlashgan geografik (maxsus xizmatlar, shu jumladan, yetkazib beruvchi, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar, shu jumladan) kompaniyalari o’rtasidagi hamkorlikni, bir-biriga munosabatlari bilan bog’liq to’ldiruvchi bir tarmoq tashkilot.

A.G.Granberg ta’rificha: Klaster – bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo’lgan korxonalar guruhi.

M.Galushkina ta’rificha: Klaster – bitta geografik hududda joylashgan va bitta tarmoqni tashkil qiladigan firmalar guruhi.

N.V.Gorodnova ta’rificha: Klaster – maxsus sohalar bo’yicha bitta geografik hududda faoliyat yuritayotgan, bir-biri bilan bog’liq bo’lgan va bir-birini to’ldiruvchi kompaniyalar, institutlar guruhi.

D.L.Skipin ta’rificha: Klaster – gorizontal va vertikal ravishda funksional bog’liq bo’lgan firmalar guruhi.

N.Ye.Yegorov ta’rificha: Klaster - jamoaviy, xususiy va yarim jamoaviy ko’rinishda bir-biri bilan bog’liq va o’zaro biribirini to’ldiruvchi firmalar, tadqiqot va rivojlanish institutlari guruhi.

N.A.Mishura ta’rificha: Klaster - tijorat va notijorat tashkilotlari guruhi bo’lib, u guruhda faoliyat yuritayotgan har bir firmanın raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

L.L.Naumova ta’rificha: Klaster - hududiy konsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog’langan tovar va xom ashyo yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrlashgan majmua.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda ham klaster tizimi ko’p sohalarga joriy qilinmoqda hamda klaster tizimida faoliyat yuritayotgan korxonalar yanada qo’llab-quvvatlanmoqda.

Ta’kidlash joizki, tadqiqot olib borish masalasi yuzasidan “2016-2020 yillarda meva-sabzavot va go’sht mahsulotlarining xom-ashyo bazasini yanada rivojlantirish, ularni qayta ishlashni chuqurlashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni ko’paytirish choratadbirlari to’g’risida”gi PQ-2505-sonli qarori qabul qilinganligini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi “Paxta-to’qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida“gi qaroriga muvofiq, 2018-yilda mamlakatimiz hududlarida 16 paxta-to’qimachilik klasterlari tashkil qilinib, ularga fermer xo’jaliklarining qariyb 159 ming gektardan ortiq ekin maydonlari biriktirildi. Joriy yilda respublika bo’yicha klaster usulida paxta yetishtirishni kamida 52 foizga yetkazish uchun 48 paxta-to’qimachilik klasteri tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

Klaster loyihasi bo’yicha paxta tolasini qayta ishlash quvvati yiliga 10 ming tonna bo’lib, xom ashyordan kalava ip, jinsi matosi, yumshoq choyshab kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Xulosa qilib aytganimizda hozirgi kunda paxtachilik va yengil sanoat sohalarida klasterlarni joriy qilinganligi, shu sohalarda yuqori ijobiliy natijalarga erishishi uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Rivojlangan davlatlarda ham 20-25 ta klaster faoliyat olib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalangan holda respublikamizda barcha sohalarda klasterlarni tashkil etish zarur. Natijada aholi ish o'rirlari kengayadi. Iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekmurodov A.Sh. «O'zbekistonni global indekslarda ishtirokini keng ta'minlash – investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning muhim sharti» O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “O'zbekiston bank-moliya sektorini innovatsion rivojlantirish: institutlar, mexanizmlar va vositalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to‘plami. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi «Moliya» nashriyoti, 2018.-11b.
2. Abduraxmon R., Abdunabi V. “Mutaxassislikka kirish”, Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T-2016y, 32-b.
3. Воронов А. Кластерный анализ–база управления конкурента способностью на макроуровне // Маркетинг. 2003. 1. С. 11–20.
4. Портер М. Конкуренция. – СПб. – Москва – Киев, 2003, 56-б.
5. Яшевой Г.А., Гранберг А.Г. Кластерная политика в экономике России // Национальные приоритеты России. 2009. 1, январь-июнь. С. 116–130.
6. Галушкина М. Предприниматели на рынке идей // Эксперт. 2006. 17. С. 48–52.4.
7. Городнова Н.В., Скипин Д.Л. Анализ, обоснование и перспективы формирования инвестиционно-строительного кластера в Тюменской области // Экономический анализ: теория и практика. 2010. 39. С. 69–76.
8. Егоров Н.Е. Инновационные кластеры в развитии экономики региона // Региональная экономика: теория и практика. 2010. 16. С. 46–52.
9. Мишура Н.А. Кластерная организация экономики: к вопросу
- 10 Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtarovich, M. K. (2021). Innovative approach to pasture management and productivity improvement. Academicia Globe, 2(05), 491-494.
11. Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). Зарубежный опыт в области пастбищных территорий, возможности и условия их использования в Узбекистане. Землеустройство, кадастр и мониторинг земель, (10), 24-27.
12. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). The importance of the cluster system today. International Engineering Journal For Research & Development, 6, 3-3.
13. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Научная статья «Улучшение пастбищ, создание новых пастбищ и разработка эффективных методов использования пастбищ». Вестник Хорезмской Академии Мамуна, 17-20.